


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral)


Viloyat bo`yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1714,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,3 % ga o`tdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 200,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 112,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1514,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 105,4 %) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 181,0 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uychi, Chortoq, Chust, Namangan va Mingbuloq tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

2019-yil yanvar-fevral



2020-yil yanvar-fevral



- Yirik tashkilot
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi


	Mrd. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1 714,1	106,3
Namangan.sh	699,7	103,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	30,0	107,4
Kosonsoy	72,3	106,0
Namangan	83,9	109,3
Norin	141,1	107,1
Pop	95,1	100,0
To`raqo`rg`on	111,7	102,3
Uychi	85,2	126,1
Uchqo`rg`on	65,2	83,6
Chortoq	92,2	124,3
Chust	145,0	120,3
Yangiqo`rg`on	92,6	106,4

Chakana savdo tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan Uychi – 126,1 % ni Chortoq – 124,3 % ni va Chust – 120,3 % ni tumanlarda tashkil etdi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	200,1	112,8	1514,0	105,4
Namangan.sh	67,4	82,9	632,4	106,2
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	0,8	6,2 m.	29,2	105,1
Kosonsoy	1,1	3,8 m.	71,2	104,8
Namangan	2,6	18,3 m.	81,3	106,2
Norin	7,3	2,2 m.	133,8	104,2
Pop	8,7	66,1	86,4	105,4
To`raqo`rg`on	5,4	78,4	106,3	103,9
Uychi	14,5	82,7 m.	70,7	104,8
Uchqo`rg`on	5,0	23,7	60,2	105,8
Chortoq	15,7	10,7 m.	76,5	105,2
Chust	69,6	143,7	75,4	104,7
Yangiqo`rg`on	2,1	175,8	90,5	105,4

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Namangan shahri (1130,1 ming so'm), Norin (872,1 ming so'm) va Chust (553,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mingbuloq (241,2 ming so'm), Kosonsoy (350,8 ming so'm), Uchqo'rg'on (384,0 ming so'm) va Uychi (405,7 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 616,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu

davriga nisbatan 4,1 % ga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	616,2	104,1
Namangan.sh	1 130,1	101,2
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	241,2	105,2
Kosonsoy	350,8	103,7
Namangan	475,2	106,9
Norin	872,1	105,2
Pop	438,2	98,2
To`raqo`rg`on	500,9	100,2
Uychi	405,7	123,4
Uchqo`rg`on	384,0	82,0
Chortoq	469,0	121,9
Chust	553,0	118,1
Yangiqo`rg`on	430,7	104,3

2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 26,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan 14,3 % ga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 73,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 347,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 9,1 % ga ko'paydi

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra 205,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % ga ko'paydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 59,2 % ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	347,5	109,1	141,9	117,5	205,6	103,9
Namangan sh tumanlar:	210,5	127,9	113,4	156,9	97,0	105,2
Mingbuloq	1,7	100,3	0,0	77,6	1,7	100,7
Kosonsoy	12,7	101,8	0,01	11,1	12,7	102,4
Namangan	10,1	102,4	0,1	198,4	10,0	101,6
Norin	19,1	103,0	0,0	0,0	19,1	103,1
Pop	9,8	102,2	0,04	100,2	9,7	102,2
To'raqo'rg'on	26,3	51,7	16,0	39,1	10,3	103,1
Uychi	8,6	185,3	3,9	881,7 m.	4,8	102,0
Uchqo'rg'on	5,3	91,9	0,1	13,4	5,2	102,6
Chortoq	24,4	113,9	2,2	0,0	22,2	103,5
Chust	10,3	96,3	6,1	91,5	4,3	104,1
Yangiqo'rg'on	8,7	103,2	0,0	0,0	8,7	103,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari foizda**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan Uychi – 185,3 %, Namangan shahar – 127,9 % va Chortoq – 113,9 % tumanlarda ko`paydi. To`raqo'rg'on – 51,7 % Uchqo'rg'on – 91,9 % tumanlarda kamaydi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:(71)-230-84-89**